

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**



**«DERMATOVENEROLOGIYA»  
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot  
Ta’lim sohasi: 910000 - Sog‘liqni saqlash  
Ta’lim yo‘nalishi: 60910100 - Stomatologiya ishi

**Andijon - 2025 yil**

| <b>Fan/modul kodi</b> | <b>O‘quv yili</b> | <b>Semestr</b> | <b>Kreditlar</b> |
|-----------------------|-------------------|----------------|------------------|
|-----------------------|-------------------|----------------|------------------|

|                                   |   |  |    |                                      |                               |
|-----------------------------------|---|--|----|--------------------------------------|-------------------------------|
| <b>DERM16-03</b>                  |   | 2025-2026                                  | VI | 2                                    |                               |
| <b>Fan/modul turi</b><br>Majburiy |   | <b>Ta'lim tili</b><br>O'zbek/rus           |    | <b>Haftadagi dars soatlari</b><br>30 |                               |
| <b>1</b>                          | <b>Fanning nomi</b>   | <b>Auditoriya mashg'ulotlari</b><br>(soat) |    | <b>Mustaqil ta'lim</b><br>(soat)     | <b>Jami yuklama</b><br>(soat) |
|                                   | Dermatovenerologiya   | 30   |    | 30                                   | 60                            |
| <b>2</b>                          | <p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – dermatovenerologiya amaliyotidan kerak bo'ladigan ma'lum hajmdagi bilimlarga, qobiliyat va amaliy ko'nikmalarga ega yuqori malakali mutaxassislar – stomatolog- umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash hamda stomatologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga og'iz bo'shlig'i shilliq qavati (OBSHQ) kasalliklari, ularning kelib chiqish sabablari (etiologiyasi) rivojlanish mexanizmi (patogenezi), klinikasi, tashxis va qiyosiy tashxislari, davolash usullari hamda ularning oldini olish (profilaktika) chora-tadbirlari to'g'risida bilim va ko'nikmalarni shakllantirib, mustaqil klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishdan iborat.</p> <p><i>Fanning vazifalari</i> - dermatovenerologiya moduli haqida tushuncha berish, talabalarni nazariy ma'lumotdan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni bajarish darajasigacha qadamma-qadam o'rgatish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etib, talabani klinik fikrlash va bilimni saqlash darajasini oshirish, teri va tanosil kasalliklar diagnostikasi va profilaktikasi borasida to'liq tushuncha berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kattalarda va bolalarda teri va og'iz shilliq qavatining orttirilgan va tug'ma, zamburug' va o'sma kasalliklarni klinik kechishini tushuntirish, talabaning klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga qo'yidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><i>VI — semestr</i></p> <p><b>1-mavzu. Teri kasalliklar haqida umumiy tushunchani shakllantirish. Ular bilan og'rigan bemorlarda terida kasallikka xos birlamchi va ikkilamchi morfologik toshmalarni aniqlashni, taxminiy tashxisni qo'yishni, birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish, umumiy va mahalliy davolashning prinsiplari haqida umumiy tushunchani shakllantirish. Dermatozlarni</b></p> |  |    |                                      |                               |

etio-patogenezining umumiy savollari. Terining patomorfologiyasi. Birlamchi va ikkilamchi morfologik toshmalar. Umumiy va mahalliy davolash prinsiplari. Taxminiy tashxis qo'yishni, birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish, umumiy va mahalliy davolashning prinsiplari haqida umumiy tushunchani shakllantirish.

**2-mavzu. Teri va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlar virusli va pufakli kasalliklari. Teri va shilliq qavatlar virusli kasalliklarining epidemiologiyasi, patogenezi xususiyatlari.** Virusli va autoimmun dermatozlarda og'iz va shilliq qavatlarining shikastlanishi. Akantolitik po'rsildoq yara kasalligi. Dyuring dermatiti. Tashxis qo'yish asoslari, qiyosiy tashxis. Umumiy va mahalliy davolash usullari. Profilaktika prinsiplari.

**3-mavzu. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar. Venerologiyaning modul sifatida rivojlanishi. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar (JYBYK) haqida umumiy axborot.** Seksual-transmissiv kasalliklarning epidemiologiyasi, zamonaviy xususiyatlari, tibbiy va ijtimoiy ahamiyati. Zaxm kasalligining umumiy kechishi. Klinik-epidemiologik xususiyatlari. Tashxis qo'yish asoslari va usullari. Og'iz shilliq qavatining shikastlanishi. Zamonaviy tasnifi, immunitetning xususiyatlari. Tug'ma zaxm. So'zak, nogonokkikli uretritlar. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar profilaktikasi va dispanserizatsiyasi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

#### *VI — semestr*

1. Teri kasalliklar haqida umumiy tushunchani shakllantirish. Ular bilan og'rigan bemorlarda terida kasallikka xos birlamchi va ikkilamchi morfologik toshmalarni aniqlashni. Umumiy va mahalliy davolash, profilaktika prinsiplari.
2. Piodermiyalar. Dermatozoonozlar. Strepto-, stafilo-, va aralash piodermiyalar. Ter va yog' bezlari.
3. Zamburug' kasallik.
4. Teri va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlar virusli infeksiyalari.
5. OIV-infeksiya. OITS.
6. Pufakli dermatozlarga.
7. Allergodermatozlar. Toksikodermiyalar.
8. Papulyoz dermatozlar.
9. Rossolimo-Merkelson-Rozental sindromi. Xeylitlar. Leykoplakiya. Labning rak oldi kasalliklari.
10. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar. Zaxm kasalligining kechishi.

Birlamchi va ikkilamchi zaxm.

11. Uchlamchi va tug'ma zaxm.

12. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar. Oqmalar sindromi. Gonoreya va nogonokakkli uretritlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

— Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

— O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

— Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;

— Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### **Klinik o'quv amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Talabalarning «Dermatovenerologiya» moduli bo'yicha klinik o'quv amaliyoti ta'lim jarayonining 50%ni tashkil qiladi va amaliy mashg'ulotlar Respublika ixtisoslashgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy amaliy markazi Andijon filiali bo'limlarida va maslahat poliklinikasida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabalar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoyish etiladi, algoritm asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyin

umumlashtirgan holda to‘liq va to‘g‘ri bajara olgandan so‘ng bemorda qo‘llashga ruxsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko‘nikmalar qadamma-qadam algoritmi va videofilmi, o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholashmezonlari ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo‘lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo‘lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to‘g‘rilaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o‘ziga namoyish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o‘qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so‘ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo‘ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o‘qitilayotgan talabaning amaliy ko‘nikmani to‘g‘ri o‘zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko‘nikma avtomatizm darajasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich — o‘rganilgan bilim va amaliy ko‘nikmani bemorda qo‘llash. Bu bosqichda talaba o‘zlashtirilgan bilim va amaliy ko‘nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo‘llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma‘lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o‘rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv, uslubiy qo‘llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to‘plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o‘rgatuvchi kasallik tarixlari va ambulator kartalar va h.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo‘ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o‘qitilayotgan talabaning amaliy ko‘nikmani to‘g‘ri o‘zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4. To‘rtinchi bosqich – xulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko‘nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to‘g‘ri va to‘liq qo‘llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko‘nikma o‘zlashtirildi deb hisoblanadi.

To‘rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi. Mashg‘ulot so‘nggida o‘qituvchi har bir talabaning amaliy ko‘nikmani o‘zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko‘nikmani o‘zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg‘ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o‘zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba

barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi.

***Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:***

Dermatovenerologiya moduli bo'yicha klinik amaliyotni o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan:

1. Psoriazda diagnostik uchlikni aniqlash;
2. Shilliq qavatlardan surtma olish;
3. Akantolitik (Tsank) hujayralarni tekshirish;
4. Balser sinamasini qo'yish;
5. Yara yuzasidan rangsiz treponemaga tekshirish uchun surtma olish;
6. Qo'tir qo'zg'atuvchilarini aniqlash;
7. Kerion Selsni aniqlash.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

|    |  |
|----|--|
| 1  | Lab va og'iz bo'shligi shilliq qavati hamda teri anatomiyasi, gistologiyasi. Terining asosiy funksiyalari.   |
| 2  | Teri kasalliklarni paydo bo'lishida ichki patologiyasining ahamiyati haqida umumiy ma'lumot.   |
| 3  | Teri kasalliklarni umumiy va mahalliy davolash usullari.   |
| 4  | Yiringli kasalliklarni qiyosiy tashxisi. Zamonaviy diagnostika va davolashda yangiliklar   |
| 5  | O'choqli alopetsiya: zamonaviy diagnostika va davolash usullari.   |
| 6  | Kallik klinik kechishi, diagnostika va davolash.   |
| 7  | Terining virusli kasalliklarni diagnostik va davolash usullari.  |
| 8  | OITSni klinik kechishi, diagnostikasi va davolash.   |
| 9  | Po'rsildoq yarani klinikasi, tashxisi va davolash.   |
| 10 | Bullyoz epidermoliz.   |
| 11 | Onixomikoz kasalligiga oid klinik belgilari.   |
| 12 | Zamburug' kasalliklarini profilaktika usullari va dispanser kuzatuvlari belgilari.   |
| 13 | Birlamchi va ikkilamchi morfologik toshma elementlari.   |
| 14 | Zamburug' kasalliklarida og'iz shilliq qavatining shikastlanishi   |
| 15 | Zaxm infeksiyasining zamonaviy kechishining xususiyatlari, oldini olish usullari va dispanser kuzatuvlari belgilari. Zaxm infeksiyasida og'iz shilliq qavatining shikastlanishi. |
| 16 | Teri autoimmun kasalliklari klassifikatsiyasi, klinik belgilari va differensial tashxisi.  |
| 17 | Teri allergik va autoimmun kasalliklariga oid klinik belgilari.  |

|    |  |
|----|--|
| 18 | Kasbga aloqador dermatitlar: ekzogen va endogen faktorlarni kasallik rivojlanishiga ta'siri.   |
| 19 | Psoriasis, vitiligoni davolashda kvant (PUVA, lazeroterapiya) terapiyaning zamonaviy asoslari. |
| 20 | Papulyoz dermatozlarni differensial tashxisi.  |
|    | <b>Jami:</b>   |

***Mustaqil o'zlashtiradigan mavzular bo'yicha talabalar quyidagilardan foydalanadi:***

Dermatovenerologiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish.

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- birlamchi bo'g'in tibbiy muassasalarida aholini profilaktik ko'rik, bemorlarni dispanserlash, patronajlarda qatnashish;

- bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, prezentatsiya) tayyorlash;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;

Shuningdek, talabaning mustaqil ishi bo'lib:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari, trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish; — modulni faol o'zlashtirishda talabalarni olimpiada, tanlovlar, ko'rgazma, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishi hisoblanadi; —

|   |  |
|---|--|
|   | <p>avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- loyihalashtirish dasturlari, organayzerlardan mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.</li> <li>- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.</li> </ul>  |
| 3 | <p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bolalar va kattalardagi teri, teri hosilalari, shilliq qavatlarining tug'ma va orttirilgan xastaliklari;</li> <li>- zamburug'li va o'sma kasalliklari;</li> <li>- dispanser kuzatuvi;</li> <li>- jinsiy aloqalar vositasida yuqadigan kasalliklar haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- teri va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarining tekshirish usullarini;</li> <li>- teri kasalliklarining mahalliy davolash tamoyillarini;</li> <li>- anafilaktik shok, o'tkir eshak yemi, Kvinke shishida tez yordam ko'rsatishni; — tibbiyot hujjatlarini olib borishni;</li> <li>- laborator-uskunaviy tekshiruvlarning natijalarini tahlil qilishni;</li> <li>- asoratlar va yo'ldosh kasalliklarni aniqlashni;</li> <li>- vaqtinchalik ishga qobiliyatsizlik ekspertizasini o'tkazishni;</li> <li>- rehabilitatsion, profilaktik, sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tadbirlar rejasini ishlab chiqishni;</li> <li>- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni;</li> <li>- bemorni professional ko'rishni (Status localis) <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>- psoriazda diagnostik uchlikni aniqlash;</li> <li>- shilliq qavatlaridan surtma olish;</li> <li>- akantolitik (Tsank) hujayralarni tekshirish;</li> <li>- Balser sinamasini qo'yish;</li> <li>- yara yuzasidan rangsiz trepomemaga tekshirish uchun surtma olish;</li> <li>- qo'tir qo'zg'atuvchilarini aniqlash;</li> <li>- Kerion Selsni aniqlash <i>amaliy ko'nikmalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>Umumiy kompetensiyalar - UK</b></p> <p>UK 1<sup>1</sup>. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;</p> <p>UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;</p> <p>UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar</p> |

uchun ijtimoiy va axloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;  
 UK 4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;  
 UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo‘llashga tayyorlik;

**Umumiy kasbiy kompetenstiyalar-UKK**

UKK 1<sup>2</sup>. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini davolash va profilaktika standartlari talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorgarlik;  
 UKK 2. Psoriazda diagnostik uchlikni aniqlash  
 UKK 3. Siydik chiqarish kanalidan surtma olish  
 UKK 4. Akantolitik (Tsank hujayralarini tekshirish)  
 UKK 5. Balser sinamasini o‘tkazish  
 UKK 6. Yara yuzasidan rangsiz treponemaga tekshirish uchun surtma olish uslubi.

**4 VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari.**

-ma’ruzalar;  
 -interfaol keys-stadilar;  
 -tezkor savol-javoblar;  
 -guruhlarda ishlash;  
 -jamoa bo‘lib ishlash;  
 -taqdimotlar tayyorlash;  
 -kasallik tarixini yozish;

**5 VII. Talablar kreditlarni to‘plash tartibi.**

Dermatovenerologiya moduli bo‘yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma’lumot modul bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Talabalarning modul bo‘yicha o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- Yakuniy nazorat (YaN).

Modulga ajratilgan 2 kreditni talaba JN davomida yig‘adi.

| No | Baholash turi                                      | Maksimal ball | Kredit soni |
|----|--|---------------|-------------|
| 1. | Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN) | 100           | 2           |
| 3. | Yakuniy nazoart (o‘tilishi majburiy).              | 100           | 0           |
|    | <b>JAMI</b>  | 100           | 2.0         |

**JORIY NAZORAT (JN)**

Joriy nazoratda talabanning modul mavzulari bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikma

va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Dermatovenerologiya moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondashuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazorat uchun ajratilgan 2 kredit ajratiladi.

Talaba har bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

#### **Yakuniy nazorat (YaN)**

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YANga kiritiladi. YANda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YANda saralash balini (55 ball) yig'a olmagan talaba YANDan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham). Fan bo'yicha YaN test markazida test (20%) kafedrada og'zaki (80%) o'tkaziladi.

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet

dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

**Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:**

| <b>Ball</b> | <b>EC<br/>TS<br/>bah<br/>o</b> | <b>ECTS ning ta'rifi</b>                       |   | <b>Bah<br/>o</b> | <b>Ta'rifi</b> |
|-------------|--------------------------------|--|---|------------------|----------------|
| 86-100      | A                              | «a'lo» — a'lo natija, minimal xatoliklar bilan | modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;<br>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;<br>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;<br>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;<br>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;<br>amaliy ko'nikmalarni mustaqil | 5                | a'lo           |

|       |   |  |  |   |        |  |
|-------|---|--|--|---|--------|--|
|       |   |  | <p>ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi; amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;</p> <p>modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo‘llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim;</p>   |   |        |  |
| 81-85 | B | «juda yaxshi» - o‘rtadan yuqori natija, ayrim xatoliklar bilan | <p>modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati</p> | 4 | yaxshi |  |

|       |   |  |   |  |  |  |
|-------|---|--|---|--|--|--|
|       |   |  | <p>va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi; amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi; o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim;</p> |  |  |  |
| 71-80 | C | «yaxshi» - o‘rtacha natija, sezilarli xatoliklar bilan | <p>modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni</p>   |  |  |  |

|       |   |   |   |   |           |  |
|-------|---|---|---|---|-----------|--|
|       |   |   | <p>o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p> |   |           |  |
| 60-70 | D | «qoniqarli» — sust natija, qo'pol kamchilik - lar bilan | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida etarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo xatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p>   | 3 | Qoniqarli |  |

|       |   |                                 |  |  |  |  |
|-------|---|---------------------------------|--|--|--|--|
|       |   |                                 | <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo xatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>   |  |  |  |
| 55-59 | E | «o'rta» — minimal natijaga teng | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va xatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va xatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va xatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> |  |  |  |

|          |   |   |  |  |            |  |  |
|----------|---|---|--|--|------------|--|--|
|          |   |   |  | o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim; |            |  |  |
| 31-54    | FX  | «qoniqarsiz» - minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur | davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.   | 2  | Qoniqarsiz |  |  |
| 0-30     | F   | «mutlaq qoniqarsiz» to'liq qayta o'zlashtirishi lozim   | davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa. |  |            |  |  |
| <b>6</b> | <b>Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari:</b><br><b>Asosiy adabiyotlar:</b><br>1. Vaisov A.Sh. Teri — tanosil kasalliklari, Darslik. Toshkent. 2009 u. |   |  |  |            |  |  |

2. Vaisov A.Sh. Teri-tanosil kasalliklari, Darslik. Toshkent. 2004 y.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Родионов А.Н., Заславский Д.В., Сыдииков А.А. Дерматология, Иллюстрированное руководство по клинической диагностике. Москва. 2018 г.

2. Atif Hasnain Kazmi. Color atlas of clinical dermatology. Jaypee Brothers Medical Pub; 1 edition, 2015 u.

3. Скрипкин Ю.К. Руководство по кожным и венерическим болезням, Методическое руководство. Москва. 2005 г.

**Kafedrada yaratilgan adabiyotlar:**

1. Pakirdinov A.B., Xaitov K.N., Mirzayev K.K., Ergashbayeva D.A. Terining yiringli kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. 2019 yil.

2. Pakirdinov A.B. Dermatovenerologiya I – II tomlar. O‘quv qo‘llanma. 2020y.

3. Пакирдинов А.Б., Алиев Л.М., Кучкаров А.А., Ботиров К.З. Венерические болезни. Учебное пособие. 2020 год.

4. Pakirdinov A.B. Dermatovenerologiya. Darslik. 2021 yil.

5. Pakirdinov A. B., Xaitov K. N., Botirov K. Z., Aliyev L. M. Qizil yassi temiratki. O‘quv qo‘llanma. 2021 yil.

6. Пакирдинов А.Б., Алиев Л. М., Насритдинова Н. Б. Применение лазерной терапии в дерматологии. Монография. 2021 год.

7. Пакирдинов А.Б., Алиев Л. М. Эфферентные методы лечения хронических дерматозов. Монография. 2021 год.

8. Пакирдинов А.Б. Гонококковые и негонококковые уретриты. Учебное пособие. 2021 год.

9. Pakirdinov A.B., Fozilov F.A. Terining tuzilishi. Terining birlamchi va ikkilamchi morfologik elementlari, Terining zamburug‘li kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. 2022 yil.

10. Pakirdinov A.B. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni teri va tanosil kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. 2022 yil.

11. Пакирдинов А.Б. Атлас по дерматологии и венерологии. Учебное пособие. 2022 год.

12. Pakirdinov A.B. Bolalar teri kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. 2022 yil.

13. Pakirdinov A.B., Kadirov K.Z., Fozilov F.A. Piodermiya. O‘quv qo‘llanma. 2023 yil.

14. Pakirdinov A.B. Teri va tanosil kasalliklari. Atlas. O‘quv qo‘llanma. 2023y.

15. Pakirdinov A.B., Saloxiddinov K.Z. Pustular skin deseas. O‘quv qo‘llanma. 2023 yil.

16. Pakirdinov A.B., Abdullajonov B.R. Pustular skin deseas. O‘quv qo‘llanma. 2023 yil.

17. Pakirdinov A.B., Aliyev L.M. Lichen planus. Psoriasis. O‘quv qo‘llanma.

2023 yil.

18. Pakirdinov A.B. Terining virusli kasalliklari. Zaxm. OIV-infeksiyasi. O'quv qo'llanma. 2023 yil.

19. Пакирдинов А.Б. Применение низкоинтенсивной свето-лазерной терапии у больных атопическим дерматитом. Монография. 2023 год.

20. Xamidov F.Sh. Teri o'smalari. O'quv qo'llanma. ADTI nashriyoti. Andijon. 2023 yil

21. Гаджимурадов М.Н., Хамидов Ф.Ш. Заболевания слизистой оболочки полости рта и красной каймы губ в дерматовенерологии. Издательско-полиграфический центр ДГМУ. г. Махачкала, ул. Абдуллы Алиева, 1. 2023 г. 144 стр. (АДТИ нашриёти. Андижон. 2023 й.).

22. Xamidov F.Sh., Xamidova M.Z., Abduraxmanov A.A. Autoimmun dermatozlarda dermatologik indekslar (Qizil volchanka, sklerodermiya, dermatomiozit, po'rsildoq). O'quv qo'llanma. 2023 yil

23. K.Z. Batirov "Teri alifbosi" O'quv qo'llanma 2023 yil

24. A.A. Qo'chqarov "Terining o'lka kasalliklari" O'quv qo'llanma 2022 yil

25. A.A. Qo'chqarov, B.X. Toshpo'latov "Teri kasalliklarining rivojlanishida ichki a'zo va asab tizimi patologiyasining ahamiyati" O'quv qo'llanma 2023y.

26. T.K. Abdujabborov "Terining zamburug'li kasalliklari" O'quv qo'llanma 2023 yil

27. T.K. Abdujabborov "Terining tuzilishi. birlamachi va ikkilamchi morfologik elementlar. pufakli dermatozlar. Dyuringning gerpessimon dermatiti." O'quv qo'llanma 2023 yil

28. N.J. Ermatov, U.A. Tashkenbayeva, T.K. Abdujabbarov "Surunkali torvoqni davolashda eliminatsion terapiyaning ahamiyati" Monografiya 2021 yil

29. Yoqubova M.A., Muxammadjonova L.A. "Kollagenozlar" O'quv qo'llanma. 2018 yil

30. Yoqubova M.A. Terining infeksiyon va parazitarni kasalliklari O'quv qo'llanma. 2020 yil

31. Yoqubova M.A. Jinsiy yo'l bilan yuquvchi ayollardagi klassik venerik kasalliklar. O'quv qo'llanma. 2022 yil

32. Yoqubova M.A. Dermatovenerologiya Darslik 2023 yil

33. Yoqubova M.A. Dermatologiya Elektron darslik 2021 yil

34. Yoqubova M.A. Ayollar so'zagi Monografiya 2022 yil

#### **Internet saytlar:**

1. [www.mediashhera.aha.ru//dermatol//derm-mn.htm](http://www.mediashhera.aha.ru//dermatol//derm-mn.htm).

2. [www.матрих.усдавис.эду//ДОЖ.хтмл](http://www.матрих.усдавис.эду//ДОЖ.хтмл)

3. [www.cc.emory.edu//WHSCIV/medweb.dermatology.html](http://www.cc.emory.edu//WHSCIV/medweb.dermatology.html).

4. [www.Мосбйсом//Мосбй//Периодисалс//медисал//СПДМ//дм/хтмл](http://www.Мосбйсом//Мосбй//Периодисалс//медисал//СПДМ//дм/хтмл)

5. [www.скиндех.com](http://www.скиндех.com).

6. [www.ама-ассн/орг//жоурналс//стандинг//дерм//деннхоме.хтм](http://www.ама-ассн/орг//жоурналс//стандинг//дерм//деннхоме.хтм).

|          |   |
|----------|---|
| <b>7</b> | <b>Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b>  |
| <b>8</b> | <b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b><br>A.B. Paqirdinov - Dermatovenerologiya kafedrası mudiri, professor<br>A.A. Qo'chqarov - Dermatovenerologiya kafedrası dotsenti                      |
| <b>9</b> | <b>Taqrizchilar:</b><br>U.A. Tashkenbayeva - TTA Dermatovenerologiya kafedrası mudiri, t.f.d., (DSc)<br>A.A. Sidikov — Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti t.f.d., professor |